

YURAK XASTALIKLARI BILAN OG'RIGAN BEMORLAR TEKSHIRUVI

Maxsudova Gulnoraxon Saidovna

*Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligini saqlash texnikumi.
Terapiya kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur mavzuda yurak xastaliklariga chalingan bemorlarning tekshiruv usullari, tashxis qo'yish bosqichlari va asosiy klinik metodlar ko'rib chiqiladi. Yurak faoliyatini baholash uchun anamnez yig'ish, fizik tekshiruv, instrumental va laborator tekshiruvlar o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, EKG, UTT, rentgen, yurakning stress-testlari kabi maxsus diagnostik tadbirlarning afzalliklari va kamchiliklari bayon etiladi. Yurak xastaliklarining erta aniqlanishi va to'g'ri tashxis qo'yish bemorning hayot sifatini yaxshilashda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: yurak xastaliklari, diagnostika, ekg (elektrokardiografiya), utt (ultratovush tekshiruv), stress-testi, anamnez, fizik tekshiruv, laborator tekshiruv, tashxis, kardiologiya.

Yurak xastaliklari dunyoda o'lim va nogironlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ularning erta tashxisi va to'g'ri davolash usullarini tanlash bemorning umrini uzaytirish va hayot sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun yurak kasalligi bilan shikoyat qilgan bemorlarni tekshirish aniq, tizimli va mukammal bo'lishi kerak.

Yurakning ishemik kasalligi yurak muskullarining qon bilan yetarli ta'minlanmasligidan vujudga keladi. Asosan, yurak toj arteriyalarining aterosklerotik o'zgarishlarga uchrashi, spazmp, shuningdek, ular bo'shlig'ida qonning (ivib) laxta bo'lib cho'kish (tromboz) va boshqalar oqibatida kelib chiqadi.

Arterial gipertoniya yurak xastaliklari orasida eng keng tarqalgani bo'lib, katta yoshli odamlar orasida ko'p uchraydi. U miokard infarkti, insult, yurak yetishmovchiligi kabi ko'pincha o'lim yoki nogironlikka sabab bo'ladigan asosiy patogenetik omil hisoblanadi.

Arterial gipotoniya (gipotoniya kasalligi) — nisbatan kam uchraydi. U arterial gipotoniya sindromi tarzida ko'pgina yuraktomir tizimi kasalliklarida (miokard infarkti, kardiomiopatiya, miokardit), nevrozlar, gipotireoz, insultdan keyin kuzatiladi.

Klinik amaliyotda yurak muskullarining yallig'lanishi — miokardit va yallig'lanmay zararlanishi — miokardiodistrofiya ko'proq kuzatiladi. Endokardit (yurak ichki qavatining yallig'lanishi) revmatizm va boshqalar orttirilgan yurak poroklarita sabab bo'ladi. Lerikardit kam uchraydi. Yurakning ishemik kasalligi,

miokardit va miokardiodistrofiya, shuningdek, nevrotik holatlar natijasida yurak aritmiyalari vayurak blokadasi sodir bo'lishi mumkin. Yurak aritmiyalari yurak qisqarishlari (urishi)ning tezlashishi (taxikardiya) yoki sekinlashuvi (bradikardiya), yurakning navbatdan tashqari qo'shimcha qisqarishi (ekstrasistoliya); yurak urishining to'satdan tezlashuvi (parok sizmal taxikardiya); yurakning har xil vaqt oralig'ida noto'g'ri qisqarishi (tebranuvchi aritmiya) va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Yurak qon-tomir sistemasi kasalliklari — yurak, arteriyalar va venalar kasalliklari. Ular juda ko'p va xilma-xil. Bu kasalliklarning ba'zilari (revmatizm, miokardit va boshqalar) yurakni, ayrimlari arteriya (ateroskleroz) yoki venalarni (mas, tromboflebit), boshqalari butun yuraktomir sistemasini shikastlaydi (gipertoniya kasalligi).

Bemor bilan suhbat davomida shikoyatlar, ularning boshlanish va rivojlanish vaqti, og'riq xarakteri, nafas qisilishi, yurak urishidagi o'zgarishlar aniqlanadi. Shuningdek, oilaviy anamnez (irsiy kasalliklar) va hayot tarzi (chekish, alkohol iste'moli, jismoniy faollik) haqida ma'lumotlar olinadi.

Bemorni umumiy ko'rikdan o'tkazish orqali yurak xastaligining klinik belgilarini aniqlash mumkin. Tekshiruv jarayonida quyidagilarga e'tibor beriladi:

Yurak urish chastotasi va ritmi

Arterial bosim darajasi

Terining rangi (siyanotik belgilar)

Shishlar (o'pka va oyoqlarda)

Yurak auskultatsiyasi (shovqin va tonlarni eshitish)

Instrumental tekshiruvlar yurak faoliyatining chuqurroq baholanishiga yordam beradi:

Elektrokardiografiya (EKG): Yurakning elektr faoliyatini o'rganish va ritm buzilishlarini aniqlash uchun asosiy usul.

Echokardiografiya (UTT): Yurak tuzilishi, klapanlar holati va nasoslik funksiyasini baholash uchun ultratovush usuli.

Raqamli rentgen: Yurakning kattaligi va shaklini, shuningdek, o'pka qon aylanishini tekshirish uchun ishlatiladi.

Yurak stress-testlari: Jismoniy mashq vaqtida yurak faoliyatini baholash, yashirin ishemiya yoki yurak yetishmovchiligi belgilarini aniqlash imkonini beradi.

Holter monitoringi: 24-48 soat davomida yurak ritmini uzluksiz kuzatish orqali qisqa muddatli ritm buzilishlarini aniqlash.

Yurak kasalliklarida qon biokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash muhim:

- Troponin va CK-MB darajasi (infarkt belgisi)
- Lipid profili (xolesterin, triglitseridlar)
- Qand darajasi

Elektrolitlar va buyrak funksiyasi ko'rsatkichlari

Ba'zi hollarda quyidagi maxsus tekshiruvlar ham kerak bo'ladi:

- Koronar angiografiya
- MRT va KT tekshiruvlari
- Nuklear tibbiyot usullari (sintigrafiya)¹

Xulosa qilib aytganda, yurak xastaliklarining muvaffaqiyatli tashxisi uchun bemorni batafsil va tizimli tekshirish juda muhimdir. Anamnez, fizik tekshiruv, instrumental va laborator tekshiruvlar natijalari asosida to'g'ri tashxis qo'yilib, individual davolash rejasi ishlab chiqiladi. Tez va to'g'ri tashxis bemorning hayot sifatini yaxshilash hamda asoratlarning oldini olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Али ибн Сино. "Tib qonunlari". Toshkent, "O'zbekiston", 2017.
2. Braunwald E. "Braunwald's Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine". 11th Edition. Elsevier, 2018.
3. Yusuf S., et al. "Global burden of cardiovascular diseases". Circulation Research, 2020; 127(6): 712-728.
4. Мусаев А.Т., Хаитов Г.Х. "Kardiologiyada zamonaviy diagnostika usullari". Toshkent, 2021.

¹ Мусаев А.Т., Хаитов Г.Х. "Kardiologiyada zamonaviy diagnostika usullari". Toshkent, 2021.